

O'QUVCHILARNING YANGI TILLARNI O'RGANISHDA DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARGA SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA YECHIM TOPISH

Rasulova Mubina Sherzodbek qizi

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishda uchraydigan asosiy muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining bu jarayondagi o'rni va u orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy AI vositalarining (ChatGPT, Duolingo, Grammarly, va h.k.) imkoniyatlari hamda ularning ta'limga integratsiyalashuvi misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, metodik muammo, psixologik qiyinchiliklar, texnologik yechim, zamonaviy ta'lim...

KIRISH

Kishilik tafakkurining eng yuksak marralari, eng teran bilimlar va eng ehtirosli tuyg'ular agar so'zda ravshan va aniq ifodalanmasa, odamlar uchun noma'lumligicha qolaveradi. Til fikrni ifoda etish quolidir va u do'stlik hamda hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir. Ayniqsa, ko'p tilni bilish- bitta qulfga tushadigan bir nechta kalitga ega bo'lish degan gap. Chet tillarini o'rganish har qanday sharoitda ham aqlni peshlaydi, boshqalarning mushohada olamiga kirib borish imkoni va nafosatini anglatadi. O'zga xalqlarning tilini bilish ona tilimizni boyitadi, uni yanada yorqin, mayin va albatta, ifodali qiladi. Bugungi global dunyoda xorijiy tillarni bilish – shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ko'plab o'quvchilar yangi tillarni o'zlashtirishda qator psixologik, metodik va texnologik to'siqlarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari yangi tillar o'rganishni yengillashtirishda samarali vositaga aylanmoqda. Quyidagi maqolada ushbu ikki jihat – muammo va yechim – ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism:

Ilm-fan, texnika rivojlangan va shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamonda, ya'ni yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini ta'limga tatbiq etilayotgan davrda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab juda yuqori. Bunga sabab o'quvchi yoshlarning yangi tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari, rivojlangan xorijiy davlatlarga sayohat qilish hamda ularning nufuzli universitetlarida tahsil olishga bo'lgan ishtiyoqlari kundan kunga ortib bormoqda. Yoshlarning chet tillarni o'rganishiga yana bir sabab ish beruvchilarning bir necha tillarni bilgan nomzodlarga bo'lgan talabning ko'pligi va ularga o'zlari istagan qulayliklarini yaratib berishlari hamda yuqori oylik maoshi bilan ta'minlanishidir. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, har qanday ishning ham mashaqqatli taraflari va bir qancha bosib o'tilishi zarur bo'lgan qiyinchiliklari bo'ladi. Xorijiy tillarni o'rganish ham avvali mashaqqatli, ohiri

esa zavqli jarayonlardan biridir. O'quvchilarning chet tillarini o'rganishdagi duch keladigan asosiy psixologik muammolar: til o'rganish salohiyatiga bo'lgan ishonchsizlik, qo'rquv hamda olg'a intilish uchun motivatsiyaning pastligidir. Inson o'z kuchiga ishonmas ekan, atrofidagi insonlar uning nazarida undan bilimlir oq va kuchlir oq ko'rinaveradi. Keyingi muammo esa uyda til muhitining yo'qligi va shu sabab o'z fikrini erkin ifodalashga bo'lgan qo'rquvdir. O'quvchilar yangi tillarni o'rganishar ekan ular doimiy suhbat va savol-javoblar ichida bo'lmog'i va o'rgangan bilimlarini mustahkamlab bormog'i zarur. Bunda o'qituvchilarga ota-onalarning ko'magi, farzandlarining til o'rganishlariga yetarlicha yordam berishlari kerak bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, muammo faqat bir tomonda bo'lmasligi mumkin, ya'ni ayrim o'qituvchilarning eskirgan o'quv uslublari, individual yondashuvning yetishmasligi hamda amaliyotga asoslanmagan nazariy bilimlarning ustuvorligi metodik muammoning yaqqol ko'rinishidir. Zamonaviy o'quv kurslari tashkil qilish zamonaviy fikrlaydigan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay biladigan o'qituvchilarni ham talab etadi. O'quvchi yoshlar malakali ustozlarga ergashmas ekan, ularning yangi tillarni o'rganish samaradorligi va tezligi pasayib boraveradi. Tilga bo'lgan qiziqishning susayishi amaliy mashg'ulotlarning kamligi va alohida individual yondashuvning yo'qligi sababli va zerikarli dars metodlari sababli paydo bo'ladi.

Texnologik va infratuzilmaviy cheklovlar, ya'ni raqamli vositalar: kompyuter, zamonaviy gadjetlar, elektron kitoblar va ayniqsa, interaktiv darsliklar, multimedia kontentlarining kamligi ham tillarni o'rganishda o'quvchilar ko'p uchraydigan to'siqlardan hisoblanadi. Kerakli ish qurollarining yetishmasligi bu albatta, ish jarayonining sekinlashishi, ortda qolishi va ko'p hollarda to'xtab qolishiga sabab bo'ladi.

Quyida Sun'iy intellekt yordamida ushbu muammolarga berilgan yechimlarni ko'rib chiqaylik. Birinchi navbatda, AI yordamida shaxsiy yondashuvni ta'minlash bu – sun'iy intellekt o'quvchining bilim darajasi, darslarni o'rganish uslubi va tezligiga qarab moslashtirilgan darsliklarni taklif qilishidir. Masalan, Duolingo va boshqa shunga o'xshash ilovalar foydalanuvchining xatolariga qarab mashqlarni avtomatik tarzda moslashtiradi. Har bir til o'rganuvchi hoh u talaba bo'lsin, hoh maktab o'quvchisi, avvalo, o'ziga mos o'quv reja va darslikka ega bo'lishi kerak, chunki har kimning bilim darajasi, darslarni o'zlashtirish salohiyati va til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi turlicha bo'ladi.

Keyingi o'rinda nutq va talaffuzni avtomatik tahlil qilish – bu AI yordamida o'quvchilar talaffuzlarini real vaqt rejimida baholash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Masalan, Elsa Speak kabi dasturlarni til o'rganish jarayonida doimiy yordamchi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq, chunki o'zga tilni nafaqat grammatikasini yaxshi bilish, balki so'zlarni to'g'ri talaffuz etish orqali o'z fikrini boshqalarga yetkazish chet tillarini bilishda muhim hisoblanadi.

Matnli muloqotlar orqali amaliy mashq – bunda ChatGPT kabi til modellaridan foydalanish orqali o'quvchilar tilni yozma va og'zaki muloqotda qo'llash ko'nikmasini

mustahkamlashi mumkin. AI yordamida tarjima va grammatikani o'rganish mumkin – Grammarly va DeepL kabi vositalar matndagi grammatik, uslubiy va leksik xatolarni aniqlab, o'quvchiga aniq tavsiyalar beradi. Zamonaviy dasturlardan til o'rganuvchi yoshlarga qay darajada to'g'ri foydalanishni o'rgatish o'qituvchining mas'uliyatli vazifalaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellektning imkoniyatlari cheksiz va yoshlar undan maqsadli foydalanishlari, kelajak rejalarining ro'yobini tezlashtirish uchun turli ta'lim dasturlaridan foydalanishlari o'zlari uchun juda foydalidir.

Amaliy natijalar va tavsiyalar:

- O'quv dasturlariga AI texnologiyalarini bosqichma – bosqich joriy etish;
- O'qituvchilarni AI vositalaridan foydalanishga o'rgatish;
- O'quvchilarga AI yordamida mustaqil o'rganish metodikasini ishlab chiqish

Xulosa:

Yangi tilni o'rganishda duch kelinadigan qiyinchiliklar ko'p jihatdan tizimli yondashuv va zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt esa ushbu muammolarga samarali yechim taklif etmoqda. AI asosidagi vositalar o'quvchilarga shaxsiy yondashuv, real vaqtda fikr almashish, talaffuzni tuzatish, motivatsiyani oshirish kabi imkoniyatlarni beradi. Kelajakda sun'iy intellekt vositalaridan keng foydalanish til o'rganishni yanada samaraliroq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Godwin – Jones, R. (2019). "AI and Language Learning: Towards a Smart Classroom". Language Learning & Technology, 23(1).
3. Oxford, R.L. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House.
4. "Tafakkur gulshani" Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti (1989)
5. www.duolingo.com
6. www.openai.com/chatgpt
7. www.grammarly.com